

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13842266>

QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARI TARKIBI KO‘RSATKICHLARINING MATEMATIK TAHLILI

Musurmonova Shahodat

Qiziltepa tuman 2-sonli kasb-hunar maktabi Traktor va qishloq xo‘jaligi agregatlari tuzilishi yo‘nalishi o‘qituvchisi.

Ibragimova Munavvar Sarvarjon qizi.

Qiziltepa tuman 2-sonli kasb-hunar maktabi Matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi yerlarini sifat darajalarini matematik tahlil qilish jarayonida, tahliliy ma‘lumotlardan foydalanilgan holda qishloq xo‘jaligi yerlarni unumdorlik darajasini oshirish yollarini yanada ko‘paytirish.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, Bozor munosabatlari, yer, yer fondi, Yer kodeksi, statistika, matematik tahlil.

Аннотация: В данной статье в процессе математического анализа уровней качества сельскохозяйственных земель используются аналитические данные для дальнейшего увеличения путей повышения продуктивности сельскохозяйственных земель.

Abstract: In this article, in the process of mathematical analysis of the quality levels of agricultural land, the methods of increasing the productivity of agricultural land using analytical data.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning barcha sohalarida amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishda, matematik tahlil etib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishda matematika va statistika fanining va shu jumladan uning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan qishloq xo‘jalik statistikasi fanining qonun-qoidalaridan hamda uslub va usullaridan ham amaliy, ham ilmiy faoliyatda foydalanish muhimdir

“Yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi bir birlik maydon hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi bilan ifodalanadi. Bir birlik maydon deganda statistikada 1 yoki 100 gektar tushuniladi. Qishloq xo‘jalik korxonalarida yerdan

foydalanish iqtisodiy samaradorligining darajasi umumlashtiruvchi va xususiy ko'rsatkichlar tizimi orqali aks ettiriladi. Bularni natura va qiymat ko'rsatkichlari deb atash mumkin. Natura ko'rsatkichlari xususiy ko'rsatkichlar bo'lib, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar qiymat ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi. Yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi natura ko'rsatkichlari bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi: 1) 1 yoki 100 gektar ekinzor maydoni hisobiga ishlab chiqarilgan don, paxta, kartoshka, sabzavot mahsulotlari miqdori (s., tonna, hisobida); 2) 100 gektar qishloq xo'jalikgiga yaroqli yerlari hisobiga ishlab chiqarilgan sut, jun, qoramollarning o'sish vazni miqdori (s., t. hisobida); 3) 100 gektar ekinzor hisobiga ishlab chiqarilgan cho'chqa go'shti miqdori (s., t. hisobida); 4) 100 gektar g'alla ekin maydoni hisobiga ishlab chiqarilgan tuxum miqdori (ming dona hisobida)."¹

Shuni aytib o'tish joizki, yer turlarining masuldorligi bir xil emasligi, ularning bir-biridan keskin farq qilishi esa birinchi navbatda yerlarning sifati bilan bog'liqdir. Har xil sifatga ega bo'lgan fizik yer maydonlari bo'yicha yerdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichini aniqlab xulosa qilish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun ushbu ko'rsatkichni kadastr maydonga nisbatan aniqlash kerak. Kadastr maydonni (KM) aniqlash uchun ekin maydonlarining fizik miqdorini (FM) ularning sifatini belgilovchi ko'rsatkich (balli)ga ko'paytirib, natijasini 100 ga bo'lish kerak, yoki fizik maydonni sifat ko'rsatkichining koeffitsientiga ko'paytirib, ularni jamlash orqali kadastr maydon aniqlanadi.

“Misol qilib olganda 10000 gektar ekin ekilgan, shundan 7000 gektari bo'g'doy, uning sifat ko'rsatkichi 74 ball, 2000 gektarga paxta, sifat ko'rsatkichi 80 ball, 500 gektari sabzavot, sifat ko'rsatkichi 70 ball, 300 gektarga hashakibop ekinlar, sifat ko'rsatkichi 40 ball, 200 gektarga zig'ir, sifat ko'rsatkichi 75 ball. Shular asosida kadastr maydonni hisoblaymiz: Shundan kelib chiqsak kadastr maydon 7400 gektarni tashkil qiladi. Bu taqqoslash xususiyatiga ega bo'lgan maydondir. Shu maydon asosida yerlardan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadga muvofiqdir.”²

.Qishloq xo'jaligi sug'orma yerlari va ularni statistik o'rganish zarurligi hamda yerdan foydalanish haqidagi davlat ro'yxat daftaridagi yozuvlarga asoslanib, har yil oxirida yillik hisobot tuziladi. Bu hisobotda yer maydonlarining yaroqli yer turlari bo'yicha bo'linishi va bu yerlardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Yillik hisobotlar viloyat boshqarmalariga yuboriladi. Besh yilda bir marta to'liq dastur yuzasidan besh yillik hisobot tuziladi. Ochilishi mumkin bo'lgan yerlar va quritilishi mumkin bo'lgan botqoqliklar mavjud xo'jaliklar yerlardan

¹ Rangaswamy, R. Specification of a Textbook of Agricultural Statistics (English) 2nd Edition. // Indian, 2013 yar.

² .Agriculture, forestry and fishery statistics — 2014 edition. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2015. Marcel Jortay Director, Sectoral and Regional Statistics

qanday foydalanishlari mumkinligi haqida davlat statistika xodimlariga belgilangan muddatda hisobot topshirib turadilar. Yer statistikasi yaroqli yerdan foydalanish haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilganida yaroqli yerlar transformatsiyasi yuzasidan jadval tuzadi, bunday yerlarning yillar bo'yicha strukturasi hisoblaydi, yaroqli yerlardan eng hosildor shudgorni alohida hisobga olib, uni boshqa yaroqli yerlar hisobiga kengaytirish chorasini ko'radi. Yer statistikasi olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda balans va guruhlash usullaridan keng foydalanadi.

“Yerlarni hisobga olish ishini tumandagi yer ishlari bo'yicha katta xodim olib boradi. U to'plagan ma'lumotlar tuman ijroiya qo'mitasi yer bo'limida saqlanadigan Davlat ro'yxat daftarida qayd qilinadi hamda uni katta xodim daftardagi ma'lumotlarga qarab yer maydonlarining foydalanuvchilarga bo'lib berilishi va ularning bo'lib berilgan (dalalardan) yerlardan qanday foydalanayotganliklari haqida hisobotlar tuzib, ularni viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmalari va Respublika Qishloq va suv xo'jalik vazirligiga yuboradi. Yerdan foydalanish va yaroqli yerlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil etishda har xil ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlar yer fondining umumiy hajmi, yaroqli yerlar tarkibi, yaroqli yerlarning foydalanuvchilarga taqsimlanishi, yaroqli yerlar hajmidagi o'zgarishlar, yerlarning sifatini ta'riflab beradi.”¹

Tahlillar natijasida, yaroqli yerlar tarkibini tekshirishda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning umumiy yer maydoniga nisbati, ekin maydonining qishloq xo'jaligiga yaroqli jami yerlarga nisbatini aniqlash muhimdir. Sug'orma yerlar balansi Tumanlar, xo'jaliklar va hatto ayrim uchastkalaridagi yerlar o'z sifati bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Bunday farq qilish yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligiga keskin ta'sir qiladi. Yerlarning sifati har xil bo'lishi, bir-biridan farq qilishi natijasida bir birlik ekin maydoniga sarf bo'lgan bir xil xarajatlar har xil natijalar beradi. Shuning uchun ham yer hisobi va undan foydalanishni to'g'ri tashkil qilish zarur. Buning uchun tuproq xususiyatlarini, uning mahsuldorligini va taqqoslama qiymatini chuqur o'rganish kerak. Shu nuqtai nazardan qishloq xo'jalik yer fondi tarkibini to'g'ri hisobga olish va yerdan samarali foydalanishni tashkil qilish uchun davlat yer kadastrini ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir.

“O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi»ning 15-moddasida «Davlat yer kadastrini»ning mazmuni va uning ahamiyati batafsil bayon qilingan. Davlat yer kadastrining muhim qismlari bo'lib, yerdan foydalanuvchilarni qayd qilish, yerni bonitirovkasi va uni iqtisodiy baholash hisoblanadi. Davlat yer kadastrini yerlarning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili

¹ Mamatqulov B.X. Qishloq xo'jaligi statistikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007.

va o'Ichamlari, ularni yer egalariga, yerdan foydalanuvchilarga, ijarachilarga hamda mulkdorlarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va huquqiy hujjatlar tizimidan iborat. Davlat yer kadastr yerning qiymat bahosini aniqlash uchun asos bo'ladi. Kadastr ma'lumotlari yerdan foydalanish, uni muhofaza qilish, yer uchastkalarini berish yoki olib qo'yish, yer solig'ini belgilash, yer tuzish ishlarini o'tkazish, xullas yerlarni hisobga olish, xo'jalik faoliyatiga baho berishda muhim hujjat bo'lib qo'llaniladi. Endi biroz yer bonitirovkasi tushunchasiga e'tiborimiz qaratsak, unga ko'ra bonitirovka deb yerlarning sifatini qiyoslama baholash tushuniladi, ya'ni yerlarni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yaroqlilik darajasi tushuniladi. Yerlarning sifati 47 ball ko'rsatkichlari (bonitetlari) orqali ifodalanadi."¹

“Yer yuzasida tuproq qatlami bo'lib u o'simlik o'sish uchun zurrur bo'lgan moddalarga (chirindilarga) ega bo'ladi. Tuproqning xususiyatlarini hisobga olgan holda uning umumiy unumdorligi (boniteti) 100 ballik tizim bo'yicha baholanadi. Demak, yer bonitirovkasi tuproqning ishlab chiqarishda qatnashish holati va tabiiy belgilari xususiyatlarining miqdoriy bahosidir. Yerlarning yaroqliligiga baho berishda ularning ballar koeffitsientlaridan foydalaniladi. Yerlarning yaroqliligi mahsuldorligini belgilovchi elementlarning o'zida mavjudligi bilan, agroximik xususiyatlari bilan ifodalanadi (gumus, fosfor, kislotalar va boshqalar bilan yerning yaroqligi aniqlanadi). Yerning bali qancha yuqori bo'lsa, u shuncha sifatli yer deb yuritiladi. Yerning sifati (bali) qancha yuqori bo'lsa, ekinlar hosildorligi shuncha yuqori bo'ladi. Yerni iqtisodiy baholash deganda nima tushuniladi? Yerni iqtisodiy baholash deganda ularni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining asosiy vositasi tariqasida qiyoslama baholash tushuniladi, ya'ni iqtisodiy baholash deganda bir birlik taqqoslama maydon hisobiga olingan mahsulotlar hajmini qiyoslash tushuniladi. Yer fondidan foydalanish natijasida uning tarkibida muayyan o'zgarishlar, ya'ni bir turdagi yerlarni boshqa turga aylanish sodir bo'ladi. Bu jarayon yer transformatsiyasi deb ataladi va yer balansida akslantiriladi.”²

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi yerlarini sifat korsatkichlarini tahlil qilishda matematik amallardan foydalanilgan holda aniq hisoblab chiqish, hamda yerdan foydalanish natijasida uning tarkibida sodir bo'layotgan muayyan o'zgarishlar, ularning bir sifat birligidan ikkinchi sifat birligiga aylanishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

¹ O'zbekiston respublikasi Yer kodeksi.

² Abduraxmonov M.A. Qishloq xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rangaswamy, R. Specification of a Textbook of Agricultural Statistics (English) 2nd Edition. // Indian, 2013 yar.
2. Agriculture, forestry and fishery statistics — 2014 edition. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2015. Marcel Jortay Director, Sectoral and Regional Statistics.
3. Mamatqulov B.X. Qishloq xo'jaligi statistikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007.
4. Abduraxmonov M.A. Qishloq xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston,2018..
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 29.12.2018 yil, No 271-272 (7229-7230).
7. O'zbekiston Respublikasini "Davlat Statistikasi to'g'risida"i qonuni. 2002 yil 12-dekabr No441-II // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2002, texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5308-son Farmoni .